

# **2025-yil uchun Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi hisobidan har oylik ustama olishga nomzod malakali pedagog kadrlarni saralash REGLAMENTI**

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

1.1. Ushbu reglament Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – Vazir jamg'armasi) hisobidan 2025-yil uchun har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlarni aniqlash bo'yicha nomzodlar o'rtasida o'tkaziladigan ikki bosqichli saralash tartibini belgilaydi.

1.2. Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta'limi vaziri jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2022-yil 2-avgustdagi 425-son qarori hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining tegishli buyruqlari asosida Vazir jamg'armasi hisobidan 2025-yil uchun har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlarni aniqlash bo'yicha ikki bosqichli saralash o'tkaziladi.

1.3. Mazkur reglamentdagi asosiy tushunchalar:

**malakali pedagog kadrlar** – vazirlik tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan:

o'quvchilari oliy ta'lim muassasalariga yoki Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarga kirish imtihonlarida eng yuqori natija ko'rsatgan pedagog kadrlar;

o'quvchilari xalqaro yoki respublika miqyosidagi musobaqa va tanlovlarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan pedagog kadrlar;

**Ishchi guruh** – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 19-noyabrdagi 369-son buyrug'i bilan tashkil etilgan Maktabgacha va maktab ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarga va ilg'or xodimlarga bir martalik pul mukofotlarini to'lash ishlarini muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh;

**yillik kvota** – vazir jamg'armasi hisobidagi mablag'lardan kelib chiqib vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan har oylik ustama oladigan pedagoglarga ajratiladigan ustamalarning jami miqdori;

**hududiy kengashlar** – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2022-yil 3-fevraldagi F-22-son farmoyishiga muvofiq tashkil etilgan xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari;

**hudud va tuman (shahar)lar kvotasi** – vazirlik tomonidan tasdiqlangan yillik kvotalarni “Boshlang'ich ta'lim”, “Aniq va tabiiy fanlar”, “Xorijiy tillar”, “Ijtimoiy va filologiya fanlari” va “Amaliy fanlar” yo'nalishlari bo'yicha taqsimlangan kvotalar;

**Nomzod pedagoglar** – Ishchi guruhlar tomonidan taqsimlangan kvotalar sonidan kelib chiqib hududiy kengashlar tomonidan Ishchi guruhga taqdim etilgan pedagoglar.

1.4. Ikki bosqichli saralashni o‘tkazishda qatnashuvchi barcha ishtirokchilar ushbu reglament bilan tanish bo‘lishlari, unda belgilangan talablarga to‘liq amal qilishlari lozim.

## **2-bob. Saralash bosqichlari haqida tushuncha**

2.1. Vazir jamg‘armasi hisobidan har oylik ustama olishga nomzod pedagoglar quyidagi ikki bosqichda saralanadi:

1-bosqichda – nomzodlarning dars beradigan umumta’lim fani bo‘yicha bilim darajasini baholash uchun test sinovlari (keyingi o‘rinlarda – test sinovlari) o‘tkaziladi;

2-bosqichda – umumta’lim fanini bilish darajasini baholash bo‘yicha o‘tkazilgan test sinovlarida maksimal ballning 80 foizi yoki undan yuqori natija ko‘rsatgan nomzodlarning kasbiy mahoratini baholash uchun suhbat o‘tkaziladi.

Bunda, suhbat o‘tkazish tartibi va mezonlari O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

2.2. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 19-noyabrdagi 369-son buyrug‘i asosida 1-bosqich test sinovlari nazorat materiallari Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tomonidan ishlab chiqiladi.

## **3-bob. Nomzod pedagoglar ro‘yxatini shakllantirish**

3.1. Ishchi guruh hududlar va tuman (shahar)lar bo‘yicha taqsimlangan kvotalarni hududiy kengashlarga taqdim etadi.

3.2. Hududiy kengashlar tuman (shahar) kvotasidan kelib chiqib har oylik ustama olish uchun nomzodlar ro‘yxati va ular to‘g‘risidagi tegishli ma’lumotlarni Ishchi guruhga taqdim etadi. Bunda:

har oylik ustama olishga nomzodlar Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 425-son qarori bilan tasdiqlangan Xalq (*Maktabgacha va maktab*) ta’limi vazirining jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomda belgilangan malakali pedagog kadrlar uchun qo‘yilgan mezonlarga javob berishi lozim;

har bitta yo‘nalish bo‘yicha tegishli tuman (shahar) uchun belgilangan har bitta kvota o‘rniga ko‘pi bilan uchta nomzodni taqdim etish mumkin;

“Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi bo‘yicha nomzod sifatida o‘quvchilari Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarga kirish imtihonlarida eng yuqori natijalarni ko‘rsatgan boshlang‘ich sinf pedagog kadrlari taqdim etilishi mumkin.

3.3. Ishchi guruh hududiy kengashlar tomonidan taqdim etilgan nomzod pedagoglar ro'yxatini umumlashtiradi.

#### 4-bob. Test sinovlarini o'tkazish

4.1. Test ishtirokchilari:

**test topshiruvchi** – Ishchi guruhlar tomonidan taqsimlangan kvotalar sonidan kelib chiqib hududiy kengashlar tomonidan Ishchi guruhga taqdim etilgan pedagoglar;

**test o'tkazuvchi** – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi;

**bino rahbari** – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining buyrug'i bilan tayinlanadigan, test sinovlarini o'tkazishda tashkiliy ishlarga mas'ul bo'lib ishtirokchilarni o'z vaqtida auditoriyaga kiritish, test sinovlariga tashrif buyurganlarni ro'yxat bo'yicha ishtirok etishini nazorat qilish, auditoriyaga olib kirish, taqiqlangan vositalarni olib kirilishini oldini olish, Milliy gvardiya va sog'liqni saqlash xodimlarini ishini tashkil etishga umumiy rahbarlikni bajaruvchi, nazorat qiluvchi va amaliy yordam ko'rsatuvchi vazirlik markaziy apparati va tarkibiy bo'linmalar, Ixtisoslashgan ta'lim muassasalari agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari xodimlari;

**bino nazoratchisi** – imtihon o'tkaziladigan bino, xona yoki hududga yaqinlashgan test topshiruvchilarning imtihonga olib kirishi taqiqlangan buyumlari bor yoki yo'qligini tekshiruvchi shaxs;

**auditoriya rahbari** – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining buyrug'i bilan tayinlanadigan, auditoriya nazoratchilari va test topshiruvchilar harakatlariga umumiy rahbarlikni bajaruvchi, nazorat qiluvchi va amaliy yordam ko'rsatuvchi vazirlik markaziy apparati va tarkibiy bo'linmalar, Maktabgacha ta'lim agentligi, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari xodimlari;

**auditoriya nazoratchisi** – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining buyrug'i bilan tayinlanadigan, auditoriyada test sinovini belgilangan qoidalar asosida o'tishini qat'iy nazorat qilishga mas'ul bo'lgan va test topshiruvchilarga test sinovlarini topshirish tartibi bo'yicha amaliy yordam ko'rsatish uchun jalb qilingan xodimlar.

4.2. Hududiy kengashlar tomonidan taqdim etilgan nomzodlarning har biri uchun <http://pedagog.uzedu.uz> platformasi orqali shaxsiy kabinet yaratiladi. Ushbu shaxsiy kabinetga nomzodlar one.id tizimi orqali kirishi mumkin bo'ladi.

4.3. 1-bosqich test sinovi <http://test.uzedu.uz> sayti orqali onlayn shaklda o'tkaziladi.

4.4. Test sinovlari o‘tkaziladigan joyi, kuni va vaqti haqida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy veb-saytida e’lon beriladi hamda nomzod pedagoglar hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari tomonidan xabardor qilinadi.

4.5. Test sinovida ishtirok etish uchun Nomzod pedagoglardan shaxsini tasdiqlovchi hujjat (biometrik pasport/ID-karta) bilan kelishi so‘raladi. Test sinoviga belgilangan muddatda kelmagan test topshiruvchilar test sinoviga qo‘yilmaydi.

4.6 Test sinovida test topshiruvchilar uzrli sababga (anomal ob-havo tufayli yo‘llarda harakatlanish cheklanganligi, davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganligi, respublika va xalqaro musobaqalarda ishtirok etganligi, yaqin qarindoshining vafoti, vakolatli davlat organi yoki ta’lim tashkilotlari rahbarlarining ma’lumotnomasida ko‘rsatilgan boshqa asoslarga) ko‘ra kelmagan bo‘lsa, ularning test sinovi boshqa muddatga ko‘chiriladi hamda vazirlik tomonidan belgilangan joyda markazlashgan holda o‘tkaziladi.

4.7 Ko‘zi ojiz test topshiruvchilarga o‘ziga biriktirilgan kotib (tegishli barcha rasmiy hujjatlari mavjud bo‘lganda) bilan birga test sinovlariga kirishiga ruxsat beriladi.

4.8. Nomzod pedagoglardan dars beradigan fanlari bo‘yicha 40 ta savoldan (spetsifikatsiya vazirlikning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi) iborat test sinovlari o‘tkaziladi.

4.9. Test sinovlari uchun 100 daqiqa vaqt ajratiladi. Har bir to‘g‘ri javob uchun 2,5 ball beriladi.

4.10. Test sinovlari o‘tkazish paytida talabgorlarning har qanday sabab bilan auditoriyadan chiqishi taqiqlanadi, test sinovini yakunlagan talabgorlar bundan mustasno (talabgorning sog‘lig‘i yomonlashgan hollarda auditoriya nazoratchisi va tibbiyot xodimlari kuzatuv ostida auditoriyadan chiqishga ruxsat beriladi). Uzrsiz sabablarga ko‘ra auditoriyadan chiqqan talabgorlar qaytadan test sinoviga qo‘yilmaydi.

4.11. 1-bosqich test sinovi natijasiga ko‘ra maksimal ballning 80 foizidan past natija ko‘rsatgan nomzodlar saralashning ikkinchi bosqichiga qo‘yilmaydi, maksimal ballning 80 foizi yoki undan yuqori natija ko‘rsatgan nomzodlar 2-bosqichga yo‘l oladi.

4.12. 1-bosqich test sinovlari natijasiga ko‘ra maksimal ballning 80 foizi yoki undan yuqori natija ko‘rsatgan pedagoglarning natijasi 2-bosqichga chiqishiga asos

sifatida foydalaniladi va ushbu natija 2-bosqich bo'yicha olgan natijasiga qo'shilmaydi.

## **5-bob. Test sinovlari xavfsizligi**

5.1. Imtihon jarayonida test savollari materiallarini elektron qurilmalar orqali tarqalib ketmasligi mas'ullar tomonidan nazorat qilinishi lozim. Kompyuterlarga onlayn platforma uchun biriktirilgan maxsus parollar belgilangan mas'ul shaxslarga beriladi. Shu sababli faqat testga aloqador bo'lgan, imtihonni o'tkazayotgan vazirlik ruxsat bergan shaxslargina maxsus parollarni kiritishi talab etiladi. Test jarayonida qoralama qog'ozlar maxsus vositalar yordamida yaroqsiz holatga keltirilishi shart.

5.2. Begonalardan himoyalaniishi kerak bo'lgan materiallar ro'yxati:

- ruxsat berilgan kompyuterlar;
- maxsus parollar;
- test materiallari.

5.3. Test sinovlarini topshiruvchilar quyidagi buyumlar bilan kirishi taqiqlanadi (*ushbu buyumlar bilan bino, xona yoki hududga kelganda, ular bino nazoratchisi tomonidan olib qo'yiladi*):

- kitob (har qanday);
- daftar (har qanday);
- ruchka (har qanday);
- qalam (har qanday);
- soat (har qanday);
- pardozi buyumlari;
- sumka, xalta, paket (har qanday);
- qog'oz (har qanday);
- eshitish apparati (nogironlik haqida hujjat ko'rsatilmaganda);
- elektron qurilmalar (har qanday);
- shaffof bo'lmagan, yorlig'i mavjud idishdagi suv;
- tamaki mahsuloti (har qanday turdagisi)
- ko'zoynak (smart texnologiyali);
- har qanday ko'rinishdagi shpargalkalar;
- sovuq qurollar;
- tig'li buyumlar;
- nam salfetka (sochiqcha, salfetka);

5.4. Auditoriya nazoratchisi nazorat maqsadida, qator oralab yurishi mumkin.

5.5. Auditoriya nazoratchilari imtihonga xalal beruvchi holatlarni aniqlaganda auditoriya rahbariga xabar berishi lozim. Imtihonga xalal beruvchi holat bartaraf etilmaguncha imtihon boshlanishiga ruxsat berilmaydi.

5.6. Auditoriya nazoratchilari tartibni buzayotgan test topshiruvchini aniqlaganda Auditoriya rahbariga xabar berishi lozim. Auditoriya rahbari qoidabuzar test topshiruvchiga nisbatan oʻrnatilgan tartibda test sinovidan chetlashtirish hujjatlarini rasmiylashtiradi.

5.7. Imtihon oʻtkaziladigan joyda (maydon, xona) quyidagicha muhit yaratilishi lozim:

- test topshiruvchilarning yakka holda oʻtirishlari uchun sharoit;
- test topshiruvchini barcha imtihon materiallari bilan taʼminlash;
- yetarli darajadagi yorugʻlik;
- yetarli darajadagi havo aylanishi;
- tinchlik saqlanishi;
- imtihon boʻlimini erta yakunlaganlar uchun kutish zalining mavjudligi;
- imtihon oʻtkaziladigan hududga begona shaxslarning kiritilmasligi;
- hududning toʻliq videokuzatuv ostiga olinganligi;
- tez tibbiy yordam brigadalarining mavjudligi.

## **6-bob. Test sinovlariga tayyorgarlik**

6.1. Ushbu bosqich test oʻtkazuvchi tashkilot tomonidan yollangan xodimlarning imtihon muhitining tayyorligi, kompyuterlarni butun jahon internet tarmogʻida muammosiz ishlashi, nomzodlar uchun yaratilgan sharoitlar belgilangan talablarga mosligi bilan tanishish bosqichi hisoblanadi.

6.2. Test sinovlarini oʻtkazishdan oldin bajarilishi kerak boʻlgan vazifalar:

- test oʻtkazuvchi xodimlarni aniqlash va belgilash;
- test sinovlari oʻtkaziladigan vaqtni belgilash va nomzodlarni xabardor qilish;
- testni nazorat qilish rejasini ishlab chiqish.
- test sinovlaridan belgilangan kundan bir kun oldin imtihon oʻtkaziladigan xonalarni belgilangan talabga javob berishini koʻrib chiqish.

## **7-bob. Test sinovlari jarayoni**

7.1. Test oʻtkazuvchi tashkilotning test sinovlari jarayonida bajarishi kerak boʻlgan vazifalari:

- test sinovlari jarayonini shaffof va adolatli oʻtkazilishini taʼminlash;

- test topshiruvchi pedagoglarga kompyuterlar orqali onlayn test sinovlariga kirish imkoniyatini taqdim etish;

- test topshiruvchilarni reja asosida chaqirilganligini nazorat qilish;

- test topshiruvchilarni reja asosida joylashtirish;

7.2. Test topshiruvchilar tashqi nazorat punktlari va bino nazoratchilaridan o'tgach ro'yxat asosida davomat olinadi. Test topshiruvchilar sinov o'tkaziladigan xonalarda tayyorlangan kompyuter o'rinlariga kiritiladi. Test topshiruvchilar kompyuterdagi maxsus platformada "Sinovga kirish uchun shaxsingizni tasdiqlang!" menyusiga JShShIR raqamlarini kiritadi.

7.3. Har bir pedagog tegishli ma'lumotlarni kiritgandan keyin auditoriya nazoratchisi test topshiruvchi pedagoglarga maxsus pin kodni kiritib tasdiqlab beradi va undan so'ng test ishlash boshlanadi.

Test topshiriqlarini ishlab bo'lgan test topshiruvchilar ekrandagi yakuniy ballarini bilishadi.

Bo'shagan kompyuter o'rinlariga navbatdagi test topshiruvchilar kiritiladi.

7.4. Quyidagi holatlar imtihondan chetlatishga asos bo'ladi:

-yuqorida qayd etilgan 5-bobning 5.3-bandida nazarda tutilgan buyumlarni test sinovlari jarayoniga yashirincha olib kirish, foydalanish yoki foydalanishga urinish;

- boshqa test topshiruvchining savollarini ishlab berish;

- gaplashmaslik haqida ikki martadan ko'p ogohlantirish olish.

7.5. Auditoriya rahbari test sinovlari boshlanishidan oldin umumiy qoidalarni (*tinchlikni saqlash, gaplashmaslik, kuzatuvchini chorchash usullari, vaqt bo'yicha eslatmalar, imtihondan chetlatish uchun sabablar*) eslatib o'tadi.

7.6. Auditoriyada bino hamda auditoriya rahbariga mobil aloqa vositasidan foydalanishga ruxsat beriladi.

Auditoriya nazoratchilari va boshqa xodimlarning auditoriyada mobil aloqa vositasidan foydalanishi va olib kirishi taqiqlanadi.

## **8-bob. Test sinovlarini yakunlash**

8.1. Barcha test topshiruvchilar test topshiriqlarini ishlab bo'lganlaridan so'ng test sinovlari yakunlanadi.

8.2. Agar test topshiruvchilarda test topshiriqlari bo'yicha e'tiroz yoki shikoyatlar mavjud bo'lsa, auditoriya nazoratchisi ularga shikoyat berish tartibi bo'yicha tushuntirish beradi.

## **9-bob. Test topshiruvchilarning shikoyatini ko'rib chiqish**

9.1. 1-bosqich test natijalari e'lon qilingandan so'ng besh ish kunida test topshiruvchilar test topshiriqlari natijasi bo'yicha <http://pedagog.uzedu.uz> platformasi orqali shaxsiy kabinetdan apellatsiya yuborishi mumkin.

9.2. Test topshiriqlari bo'yicha Nomzod pedagog kadrlar apellatsiyasi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tomonidan ko'rib chiqiladi va nomzodlarning shaxsiy kabinetiga javob yuboriladi.

## **10-bob. Test sinovlariga bino hamda auditoriya rahbari etib belgilangan xodimlarning vazifalari**

10.1. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi buyrug'i bilan 1-bosqich test sinovlariga bino hamda auditoriya rahbari etib biriktirilgan xodimlarga birgalikda quyidagi vazifalarni amalga oshirish yuklatiladi:

- mas'ul xodim belgilangan hududga 1 kun oldin borib, test sinovlari o'tkaziladigan joydagi kompyuterlarni, kuzatish maydonlarini hamda har bir kompyuterni raqamlanganlik holatini va internet tezligini tekshirish:

- "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati bilan bog'lanib, test sinovlari kunlari hududdagi elektr tarmog'ini uzluksiz ishlashini ta'minlash choralari ko'rish (imkoniyat bo'lsa ehtiyot chora sifatida dvijokni tashkil etish);

- kuzatuv kamerasing ishlash holatini tekshirish va har bir nuqtani (kirish-chiqish yo'laklarini va asosiy imtihon bo'ladigan joy) qamrab olinganligini ko'rish;

- Milliy gvardiya, IIB, tibbiyot xodimlarini belgilangan joylarga sxema bo'yicha joylashtirish;

- kirish yo'laklari va pavilyonlarga yo'naltiruvchi belgilar o'rnatish;

- test sinovi boshlanadigan kundan bir kun oldin har bir auditoriya nazoratchilariga ular biriktirilgan auditoriyani (xona, zal) ko'rsatish va test sinovlari jarayonini shaffof o'tkazilishiga mas'ul ekanligini tushuntirish;

- test sinovi boshlanishidan 2 soat oldin borib hamma qurilmalarni yoqish, ishchi holatga shay qilinganligini nazorat qilish;

- test sinovi boshlanishidan oldin o'qituvchilarni test sinovi o'tkazilishi bo'yicha buyruq va test o'tkazish tartibi bilan tanishtirish;

imtihon boshlanishi bilan har bir nazoratchi va ishtirokchilarni kuzatish, test sinovini shaffof o'tkazilishini ta'minlash;

- auditoriya nazoratchisi tomonidan har bir ishtirokchi kompyuterida test jarayoniga ruxsat beruvchi maxsus kod terib berilishini nazorat qilish;

- test sinovi jarayonida imtihon topshiruvchi tomonidan birortasi baland ovozda xato yoki internet ishlashida kuzatilayotgan muammoga duch kelganligini bildirsa, shu zahoti nazoratchi tomonidan muammo bartaraf etilishini nazorat qilish;

- test topshiruvchi tomonidan mazkur reglamentda belgilangan tartib-qoidalarga zid harakatlar amalga oshirilsa, test topshiruvchini test sinovi jarayonidan chetlatish chorasi ko'rish, dalolatnoma tuzish, jarayondan chetlashtirish;

- test sinovi jarayonida fors-major holatlari kuzatilsa, zudlik bilan vazirlik rahbariyatiga xabar berish.



## **11-bob. Yakunlovchi qoidalar**

11.1. Ushbu Reglamentni qo‘llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.